



УДК 001.895(575.1)(091)

Dilafroz MAMASADIQOVA,
Toshkent davlat texnikau universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mamasadikova@my.com

O‘zMU professori, t.f.n Z.Raxmonqulova taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI INNOVATSION RIVOJLANISH AGENTLIGI ILMIY-TEXNIK AXBOROT MARKAZI TARIXI

Аннотация

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Innovatsion rivojlanish agentligi ilmiy-texnik axborot markazining shakllanish tarixi, tashkiliy-huquqiy asoslari va faoliyat evolyutsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy-texnik axborot markazi (ITAM), davlat ilmiy-texnika dasturlari, ilmiy axborotnoma, ilmiy-texnik kengashlar.

ИСТОРИЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ИНФОРМАЦИОННОГО ЦЕНТРА АГЕНТСТВА ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье анализируются история формирования, организационно-правовые основы и эволюция деятельности Научно-технического информационного центра Агентства инновационного развития при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Научно-технический информационный центр (НТИЦ), государственные научно-технические программы, научный информационный бюллетень, научно-технические советы.

HISTORY OF THE SCIENTIFIC AND TECHNICAL INFORMATION CENTER OF THE INNOVATION DEVELOPMENT AGENCY UNDER THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the history of formation, organizational and legal foundations, and the evolution of activities of the Scientific and Technical Information Center of the Innovation Development Agency under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Scientific and Technical Information Center (STIC), state scientific and technical programs, scientific information bulletin, scientific and technical councils.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-texnik axborot tizimini yaratish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy faoliyatni axborot bilan ta‘minlash, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun zamonaviy axborot infratuzilmasining yaratilishi bugungi kun talabidir. Shunday infratuzilmalardan biri – Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi (ITAM)dir. Markazning shakllanish tarixi, huquqiy asoslari, vazifalari va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish O‘zbekiston ilmiy tizimining evolyutsiyasini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

“Ilmiy-texnika axboroti – ilmiy-texnik rivojlanishdan kelib chiqadigan hujjatlashtirilgan axborot, shuningdek, menedjerlar, ilmiy, muhandislik va texnik xodimlarning o‘z faoliyati davomida, xususan ixtisoslashgan iqtisodiy va huquqiy axborotga muhtoj manba” – deya ta‘rif beradi Sh.Sh. Ergashev [1]. Bizning fikrimizcha, ilmiy-texnika axboroti — bu fan, texnika va texnologiya sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar, ixtirolar va innovatsion ishlanmalar natijasida yaratilgan, amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan tizimlashtirilgan bilimlar majmuidir.

Tahlil va natijalar. Ilmiy-texnik axborot markazi tarixi sobiq ittifoq davriga borib taqaladi. 1950 – 1970- yillarda ilmiy-texnik axborot markazlari (ITAM)lar tashkil qilingan bo‘lib, 1980-yillarda ularning Respublika, viloyatlardagi

hududiy tizimlari tashkil etilgan. Umumdavlat tizimida jami 166 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko‘rsatganlar. Mazkur tizimda texnik axborotlarni “Referativ jurnallar” va “Axborot seminarlar” orqali tezkor yetkazib berish asosiy vazifa hisoblangan [2]. Bu davrda respublikalarda ilmiy-texnik axborot markazlashgan holda boshqarilgan. Ushbu tizimning tashkiliy asosi mustaqilikka qadar Davlat fan-texnika qo‘mitasi (Государственный комитет науки и техники – “ГКНТ”) tomonidan yuritilgan. Mazkur davrda shakllangan normativ-amaliy tajriba keyinchalik milliy tizim uchun institutsional poydevor vazifasini bajargan.

1991-yildan keyin O‘zbekiston ilmiy axborot tizimi milliy model asosida qayta shakllandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 18-fevraldagi PF-345 son “O‘zbekiston Respublikasi fan va texnika komiteti (O‘zbekiston Respublikasi FTDK)ni tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoni boshlang‘ich bosqichi sifatida muhim ro‘l egallaydi. Unga asosan, yagona ilm-fan boshqaruvi organi – Fan va texnika qo‘mitasi tashkil etildi. Bunda:

ilmiy muassasalarda yangi axborot bo‘limlari ochildi; davlat miqyosida ilmiy-texnik axborotni markazlashtirishga intilish boshlandi [3].

Respublikaning ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarini saqlab qolish va mustahkamlash, O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim muammolarini hal etish uchun uning kuchlarini qayta yo‘naltirish va bir joyga to‘plash

maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat ilmiy-texnika siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 382-son qarori bilan davlat ilmiy-texnika dasturlari (DITD) tasdiqlangan.

Davlat ilmiy-texnikaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib:

1. Mustaqillik va bozor munosabatlariga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish;
2. Agrosanoat kompleksi;
3. Yoqilg'i energetika kompleksi;
4. Mineral xomashyo va sanoat kompleksi;
5. Sog'liqni saqlash va ekologiya;
6. Axborot texnologiyalari va boshqalar belgilandi [4].

Davlat ilmiy-texnika dasturlarini (DITD) shakllantirish, ilmiy takliflarni ko'rib chiqish hamda ularni ekspertizadan o'tkazishning institutsional jarayonlari doirasida Qo'mita huzurida maxsus Ilmiy-texnik kengashlar (ITK) tashkil etildi. Ushbu kengashlar har bir DITDni shakllantirish, tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha taqdim etilgan takliflarni ko'rib chiqish va dastlabki ilmiy-texnik ekspertizani amalga oshirish vazifalarini bajarar edi. Dastur doirasidagi tadqiqotlarni bajaruvchi tashkilotlar orasidan bosh tashkilot maqomiga ega ijrochi muassasa belgilandi.

ITK yig'ilishlarida dasturlarga kiritish uchun taqdim etilgan har bir ilmiy taklif yuzasidan kengash a'zolari va sohaga oid yetuk olimlar orasidan kamida ikki nafardan ekspert tayinlandi. Ekspertlarning xulosalari ochiq, oshkora tartibda muhokama qilindi hamda mazkur jarayon bo'lajak dastur loyihasini shakllantirishda asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Fan qo'mitasi boshqarmasi tomonidan ITKlar shakllantirgan dastur loyihalari ijrochi tashkilotlarning ilmiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlari bilan hamkorlikda batafsil o'rganildi. Taklif etilgan ilmiy mavzularning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati hamda erishilishi rejalashtirilgan natijalar chuqur ekspertizadan o'tkazildi. Bosh tashkilot sifatida belgilangan ijrochi muassasaning Olimlar kengashi dastur loyihasini ko'rib chiqib, tegishli qaror bilan Fan qo'mitasiga qaytarib taqdim etdi.

Fan qo'mitasi boshqarmasi hamda bosh tashkilot Olimlar kengashi tomonidan shakllantirilgan dastur loyihalari Qo'mitaning dasturlar bo'yicha kengashida qayta muhokama qilindi va tasdiqdan o'tkazilib, bayonnoma bilan rasmiylashtirildi. Shundan so'ng boshqarma mazkur dasturlarni Fan qo'mitasi hay'ati majlisiga tasdiqlash uchun tayyorladi. Hay'at majlisida boshqarma boshlig'i DITDlar bo'yicha to'liq axborot taqdimoti bilan chiqdi.

Moliya vazirligi tomonidan ajratilgan mablag'lar "GKNT"ning hisob raqamiga o'tkazilib, ushbu mablag'lardan maqsadli foydalanish Qo'mitaning dasturlar bilan ishlovchi boshqarmasi tarkibidagi moliyalashtirish sektori tomonidan amalga oshirildi. Hay'at qarori bilan tasdiqlangan va moliyalashtirish hajmi hamda ijrochi tashkilotlari belgilab qo'yilgan dasturlar Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni, tegishli vazirliklar va ijrochi tashkilotlarga yuborildi.

Dasturga kiritilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining monitoringi, oraliq va yillik hisobotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ekspertizadan o'tkazish jarayonlari "GKNT"ning dasturlar bilan shug'ullanuvchi boshqarmasi rahbarligida Davlat ilmiy-texnika axboroti fondi tomonidan amalga oshirildi. Monitoring natijalari "GKNT" hay'ati majlisida ko'rib chiqildi va belgilangan tartibda tasdiqlandi.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli qaroriga muvofiq [5] Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni

rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etilgan. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstruktorlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan samarali foydalanishga zamin yaratdi.

Qo'mita fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqib, ularning amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida 8 ta me'yoriy-huquqiy hujjatni tayyorlab, tasdiqlanishiga erishdi. Shuningdek, mamlakatda ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarish hamda fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirishning ochiq va oshkora ekspertizaga asoslangan yangi tizimi joriy etildi.

Mazkur yangi tizim doirasida Qo'mita fundamental va amaliy tadqiqotlar, shuningdek, innovatsion yo'nalishdagi davlat dasturlarini shakllantirish uchun ilmiy loyihalar tanlovini o'tkazdi. Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda DITD doirasida amalga oshiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar bo'yicha buyurtmachi tashkilotlar sifatida belgilandi.

Ushbu tashkilotlarga ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini davlat dasturlari doirasida samarali tashkil etish, loyiha ijrochilari tomonidan taqdim etiladigan oraliq va yakuniy hisobotlarni qabul qilish, ularni ro'yxatga olish va saqlash, monitoring jarayonlarini olib borish kabi vazifalar yuklatildi. Bundan tashqari, ular tanlovlar asosida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar bo'yicha DITDni shakllantirish hamda olingan ilmiy natijalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni ta'minlashga mas'ul etib belgilandi.

2008–2017-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligidagi Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhning kotibiyati hamda ishchi organi shakllantirildi. Ushbu davrda barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari, tajriba-konstruktorlik byurovlari, kichik innovatsion markazlar va individual ixtirochilarning takliflari yig'ilib, tizimli ravishda saralandi hamda Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar katalogi o'zbek va rus tillarida nashrga tayyorlandi.

Mazkur kataloglar ilmiy ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirishni jadallashtirish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarga, korxonalar, tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklariga yetkazildi, shuningdek, keng omma foydalanishi uchun elektron platformalarga joylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [6] hamda ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligining 2019-yil 11-dekabrda 266-son, 2020-yil 4-martdagi 60-son va 29-dekabrda 222-son buyruqlariga muvofiq vazirlik huzurida "Ilmiy-texnik axborot markazi" tashkil etildi va unga ilmiy-texnik axborot tizimini yuritish vazifasi yuklatildi. Bu, o'z navbatida, ilmiy-texnik axborotni boshqarishda yangi bosqichni boshlab berdi va markaz:

ilmiy axborotni yig'ish;
tahlil qilish;
umumlashtirish;
elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish
vazifalarini bajaruvchi asosiy muassasa sifatida faoliyat yurita boshladi [7].

Bundan tashqari, markaz faoliyati doirasida davlat ilmiy-texnik dasturlari va grant loyihalari bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining oraliq hamda yakuniy hisobotlari jamlanib, yagona elektron axborot bazasiga joylashtirildi, bu esa, ilmiy natijalarning saqlanishi, ularning takrorlanishini kamaytirish va ilmiy boshqaruv jarayonlarida axborotdan

samarali foydalanish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, ilmiy va innovatsion loyihalarning bajarilish holati axborot-tahliliy monitoring asosida kuzatilib, loyihalarning belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligi baholandi hamda monitoring natijalari tegishli vakolatli organlarga taqdim etib borildi.

Shuningdek, ITAM tomonidan jahon va milliy ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi dolzarb yo‘nalishlar, ilg‘or texnologiyalar va ixtirolar bo‘yicha axborot-tahliliy sharhlar hamda dayjestlar tayyorlanib, ular ilmiy tashkilotlar, oliy ta‘lim muassasalari va amaliyot subyektlari uchun muhim axborot manbai vazifasini bajardi. Markaz xalqaro ilmiy axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida Web of Science, Scopus va Springer Nature kabi nufuzli ma‘lumotlar bazalari bilan ishlash bo‘yicha seminar va

treninglar tashkil etib, respublika olimlarining ilmiy nashrlar faolligi hamda xalqaro ilmiy makondagi ko‘rinishini oshirishga ko‘maklashdi.

Xulosa. Xulosa o‘rinda ilmiy-texnik axborot markazi faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur markaz respublikada ilmiy-texnik axborotni markazlashgan holda boshqarish tizimini shakllantirishda muhim institutsional bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘lmoqda. Markaz tomonidan ilmiy tadqiqotlar natijalarini jamlash, tizimlashtirish va elektron axborot resurslari orqali tarqatish amaliyotining yo‘lga qo‘yilishi ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish hamda ilmiy boshqaruv jarayonlarida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

ADABIYOTLAR

1. Ergashev Sh. Sh. O‘zbekistonda ilmiy-texnik axboroti resurslarining fan, ta‘lim va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati // Review of law sciences (2020) 100-103.
2. Rahimov F., Muhammadiyev A., Nazirov S., Abdulniyazov Q., Abdullayeva N. Ilmiy-texnik axborot tizimi ishtirokchilari uchun qo‘llanma. Qo‘lyozma. – Toshkent, 2025. B.13-14.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 18-fevraldagi PF-345 son “O‘zbekiston Respublikasi fan va texnika komiteti (O‘zbekiston Respublikasi FTDK)ni tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2 avgustdagi 382-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat ilmiy-texnika siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi PQ-436-son “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5544-son Farmoni.
7. “Ilmiy-texnik axborot markazi. Ilmiy-texnik axborotni shakllantirish va boshqarish bo‘yicha axborot resurslari, hisobotlar va tahliliy materiallar. – Toshkent, 2019–2025.
8. UNESCO Science Report, 2021.